



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO
HAMKORLIK MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**



**2023-yil
19-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI”**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari**

2023-yil 19-oktabr

Toshkent – 2023

OLTIN O‘RDADA QO‘LLANGAN ADABIY TIL

LITERARY LANGUAGE USED IN THE GOLDEN ORDA

O‘razova Iqbol*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oltin O‘rda terminining iste‘molga kiritilishi, XIV asrda turkiylar hayotida foydalanilgan til va o‘zbek tilining shakllanishida bu bosqichning o‘rni kabi dolzarb masalalarga munosabat bildirilgan. Ababiy va ilmiy manbalarga tayangan holda bu davr adabiyoti va siyosiy hayotida ustuvor muloqot vositasi sifatida foydalanilgan til haqidagi bahs-munozaralarga yakuniy xulosa sifatida o‘zbek tili ekanligi dalillangan.

Kalit so‘zi: Oltin O‘rda adabiyoti, dialekt, qarluq, o‘g‘uz, eski o‘zbek adabiy tili, davlat tili, uyg‘ur xati

Abstract. In this article, the use of the term Golden Horde, the language used in the life of the Turks in the XIV century, and the role of this stage in the formation of the Uzbek language are discussed. Based on historical and scientific sources, it is proved that the Uzbek language is the final conclusion to the debates about the language used as the primary means of communication in the literature and political life of this period.

Key words: Golden Horde literature, dialect, Qarluq, Oghuz, old Uzbek literary language, state language, Uyghur script.

XIV asr o‘zbek adabiyotiga nisbatan “Oltin O‘rda adabiyoti” degan nom ishlatiladi. Bu nom bilan adabiy hodisaga qarash XX asrning birinchi choragida paydo bo‘lgan va “Oltin O‘rda adabiyoti” terminini birinchi bo‘lib o‘zbek adabiyotshunosligiga Miyon Buzruk olib kirgan [Miyon Buzruk, 1930: 60-62]. Ammo Oltin O‘rda adabiyotining tarixda tutgan o‘rni, shakllanish omillari N.Rahmonov tomonidan har tomonlama batafsil ochib berilgan: “Oltin O‘rda adabiyoti Oltin O‘rda davlatidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotning tubdan yangilanishiga, o‘ziga xoslik kasb etishiga xizmat qildi. O‘rta Osiyodagi madaniy hayot Oltin O‘rdaga ko‘chdi” [Rahmonov, 2017: 224].

Turkolog A.K.Borovkov bu davr tili haqida gapirar ekan, “XI – XIV asrlarda O‘rta Osiyoda turkiy tillarning dialektal muhiti – qarluq-turkcha va o‘g‘uz-turkmancha dialektal muhiti mavjud ekanligi”ni aytib o‘tgan [Borovkov, 1963: 15]. F.Abdullayev XI – XIV asrlarni turkiy tillar tarixining ikkinchi davri sifatida ajratadi va bu davrdagi XII – XIV asr yodnomalarining qaysi tilda yaratilgani haqidagi munozarali qarashlarga to‘xtaladi. Olim A.Borovkov fikriga qo‘shilgan holda bu davrda yaratilgan yodgorliklarning ko‘pchiligi ikki etnik guruh – qarluq va o‘g‘uzlar tilining asosiy xususiyatlarini aks ettirishini va ko‘p jihatdan ikki urug‘dosh tilning aralashuvidan hosil bo‘lgan adabiy til taassurotini berishini qayd qilgan [Abdullayev, 1977: 23-29].

Bu borada turk olimlari fikrlarida ham xilma-xillik seziladi. Professor F.Ko‘pruluzoda Sayfi Saroyini Misr turkchasining “qipchoq” shevasida yozgan degan bo‘lsa, Xifzi Tavfiq va Hasan Oliylar “yashayon Chigatay shairlerinin cho‘g‘u takdire shayan fig‘urlerinden biri” deb ta‘riflash orqali chig‘atoy tilida ijod qilganiga ishora qiladi [1924: 38].

Vengriyalik sharqshunos Ture Yujef fikricha, “... nihoyat Misr turkchasina oid uchunchi lisoni asarida Sa‘diy “Guliston”ining “Kitobi Gulistoni bit-turkiy” unvonli tarjimasidirki, bunida Misrda yashamish ulon Sayfi Saroyi 1391-(793) yilda yozmishdir”.

O‘zbek tilshunosligida bu davr manbalari haqidagi ilk ma‘lumot Fitrat ma‘ruzalarida uchraydi. Yetuk adabiyotshunos va tilshunos Fitrat Sayfi Saroyi tili haqida shunday deydi: “... Misrga ketib, Sa‘diy “Guliston”i asosida “Guliston” yozgankim, bu asari til jihati bilan Xorazm lahjasiga oiddir” [Nasrullo Davron, 1936: 15].

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrası.

XIV asr manbalari leksikasi va morfologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan akademik Ergash Fozilov bu davr manbalarini "Xorazm yodnomalari" deb nomlaydi va "Muhabbatnoma", "Gulistoni bit-turkiy", "Xusrav va Shirin", "Yusuf va Zulayho" asarlarining xorazm shevasida yozilganiga ishora qiladi" [Fozilov, 1965: 4]. Shuningdek, turkolog Leydin universiteti kutubxonasida saqlanayotgan "Gulistoni bit-turkiy" asarining so'nggi sahifasida xorazm xalq qo'shig'i, uning ikki variantda yozib qoldirilgani haqida ma'lumot berib, shunday degan: "Qo'shiqning ikkinchi bayti Xorazmda o'tmishda keng tarqalgan "Olma otish" o'yinini (ya'ni sevishganlar ulug' ayyom – to'y, Navro'z kabilarda bir-biriga olma otishar edilar) esga soladi. Bu hol Xorazm an'alarining ushbu qo'shiqda mavjudligini ko'rsatadi" [Fozilov, 1965: 4]. Ushbu maqoladagi faktlarga va asar tili, "Suhayl va Guldursun" dostonidagi misralarning Xorazmiy ijodi bilan uyg'unligiga tayangan holda Nasrulla Davron Sayfi Saroyining xorazmlik ekanligi va Xorazm shevasi ila ijod etganligini ta'kidlaydi [Nasrullo Davron, 1967: 21].

Q.Omonov mavzuga oid quyidagi fikrlarni keltiradi: "XIV–XVI yuz yilliklarda eski o'zbek adabiy tili Mavoraunnahr va Xurosondagina emas, boshqa turkiy ellarda ham davlat tili vazifasida amal qilgan. Oltin O'rda davlati, Qrim xonligi, usmonli saltanatining devon-mahkama idoralarida bitilgan farmon va buyruqlar, diplomatik yozishmalar, fathnomalar eski o'zbek adabiy tili an'analari ta'sirida bitilgan. Ularning uslub va ichki tuzilishi temuriylar davrida yaratilgan rasmiy bitiklar uslubida. Ushbu dalillar eski o'zbek adabiy tilining mavqeyini va uning xalqaro diplomatik munosabatlardagi o'rnini ko'rsatadi" [Omonov, 2016: 24].

B.Abdushukurov fikricha, Oltin O'rda adabiy muhitida yaratilgan o'nlab badiiy asarlar, tarixiy asarlardagi ma'lumotlarga tayanib, XIII–XIV asrlarda Oltin O'rda davlatining rasmiy tili turkiy til, yozuvi esa uyg'ur xati edi, degan qat'iy xulosaga kelish mumkin [Abdushukurov, 2021: 95].

Oltin O'rda adabiy tili borasidagi munozarali masalaga uzil-kesil javobni A.Begmatov maqolasidan olish mumkin. Olim XIII–XV asrlarda dunyodagi eng katta hududni egallagan hamda Oltin O'rda deb atalgan Jo'ji ulusining rasmiy tili o'zbek tili bo'lganligini diniy, iqtisodiy, madaniy omillarni sanash va rad etib bo'lmas tarixiy faktlarni keltirish bilan isbotlaydi. Bu hududda Rabg'uziy, Sayfi Saroyi, Qutb, Xorazmiy kabi shoirlar ijod qilgani, bu ijodkorlar hozirda eski o'zbek tili deb nomlanayotgan o'zbek tilida ijod qilganini ta'kidlagan holda quyidagi fikrlarni dalil sifatida keltirib o'tadi: "Muallifi noma'lum bo'lgan, rus tilida yozilgan "Oltin O'rda she'riyati" ("Поэзия Золотой Орды") nomli risolada ko'rsatilishicha, Oltin O'rda she'riyati Yusuf Bolasog'uniy, Ahmad Yassaviy, Sayfi Saroyi, Qutb, Xorazmiy va Qul Ali she'riyatining davomidir" [Begmatov, 2021: 23-30].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, XIII –XIV asrlarda Oltin O'rdada va Xorazmda o'ziga xos adabiy markaz shakllangan. Bu yerda yozilgan asarlar til jihatdan ko'proq qipchoq-o'g'uz urug' tillari xususiyatini o'zida mujassamlantirgan. O'g'uz lahjasida so'zlashuvchilar ko'pchilikni tashkil etib, ular Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmda joylashgan. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si, Qutbning "Xusrav va Shirin" asari, diniy xarakterdagi "Rohat ul-qulub", "Najh ul-farodis", Qul Alining "Qissayi Yusuf'i, To'xtamish va Temur Qutluq yorliqlari Oltin O'rda adabiy tilining shakllanishiga hissa qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. –B. 95.
2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили тарихини даврлаштириш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. –№ 4. –Б. 23-29.
3. Бегматов А. Ўзбек тили ва Олтин Ўрда / Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2021. –№ 5. –Б. 23-30.
4. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тefсира XII-XIII вв., – М.,1963. –С. 15.
5. Бузрук Миён. Ўрта Осиё ва ўзбек адабиёти тарихига умумий қараш. –Тошкент: Ўзнашр, 1930. –Б. 60-62.
6. Даврон Н. Проф. Фитрат томонидан ўқилган маъруза матни. Самарқанд давлат университети, 1936. –Б.15.

7. Даврон Н. Сайфи Саройининг адабий фаолияти. Филол. фан. номз...дисс. –Тошкент, 1967. –Б. 21.
8. Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомил (илк ва ўрта асрлар) Филол. фан. док. дисс... автореф. –Тошкент, 2016. –Б. 24.
9. Раҳмонов Н. Ўзбек адабиёти тарихи. –Тошкент: Сано-стандарт, 2017. –Б. 224.
10. Турк адабиёти намуналари. –Истанбул, 1924. –Б.38.
11. Фозилов Э. XIV асрда ёзиб олинган халқ кўшиғи. “Ўзбекистон маданияти” газетаси. – Тошкент, 1965. 8-дек. –Б. 4.
12. Muhammadiyeva D.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAAJ:UeHWp8X0CEIC
13. O‘razova I.
https://www.researchgate.net/publication/371445592_UzMU_HABARLARI_VESTNIK_N_UUz_ACTA_NUUz_MIRZO_ULUGBEK_NOMIDAGI_UZBEKISTON_MILLIJ_UNIVERSITETI_ILMIJ_ZURNALI
14. O‘razova I.
https://scholar.google.com/citations?view_op=list_works&hl=en&user=oSSeGakAAAAAJ&gmla=AJsN-F4xXsnQkorkZfkCns%20J13NxbQl_btWZxY3Mn1Yqwf8fMB-Z2xaDfKEeADRS%20z1aynTV4-wnq3YUqXm-96pZ0qtjTqd31EhHiBIW-iGYVK5BqQ8EWNh1iSIDaPzbAvJu6fANos1Yl
15. Rixsiyeva K.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=DVyguIUAAAAAJ&citation_for_view=DVyguIUAAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
16. Umurzoqova M. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality
https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_the_formation_of_a_linguistic_personality?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlIjoicHJvZmlsZSJ9fQ
17. Xolmanova Z.
https://www.researchgate.net/publication/358344028_Boburnoma_leksikasi_tadqiqi

QADIMGI TURKIYLAR NOMLANISHIGA OID ETIMOLOGIK QARASHLAR

ETYMOLOGICAL CONSIDERATIONS REGARDING ANCIENT TURKISH NAMES

Israilova Saodat*

***Annotatsiya:** Turk degan nom Turk xoqonligi davrida avvaldan ham turkiy tilde so‘zlashadigan, irqiy va urf-odat jihatidan bir-biriga o‘xshash yoki turkiy hamda turkiylashgan elatlarning yig‘indisini anglatardi. Turk xoqonligi davrida bu jarayon o‘z rasmiy maqomiga ega bo‘ldi. Shuningdek, qadimgi turk davrida turkiy qavmlar yagona nom bilan ko‘tkurklar deb nomlanadigan bo‘ldi. Ko‘k turk – ilohiy turk deganidir. Turkiy qavmlar yaratgan mifga ko‘ra, ular osmonni ota, yerni esa ona sifatida tasavvur etganlar. Shu bois o‘zlarini ham osmon farzandlari deb ataganlar va ko‘tkurk degan mifologik nom ularning urug‘ nomiga aylandi. Biz mazkur maqolada aynan ko‘tkurk nomiga to‘xtalib o‘tamiz*

***Kalit so‘zlar:** qadimgi turkiylar, ko‘tkurk, osmon farzandi, samoviy turklar, toponimlar, tarixiy etimologik birliklar.*

* Senior teacher of UzMU, candidate of philological sciences, israilovas404@gmail.com

Abstract: *The name “Turk” during the period of the Turkish khanate meant a collection of peoples who spoke the Turkish language, were similar in terms of race and customs, or Turkic and Turkicized peoples. During the period of the Turkish khanate, this process gained its official status. Also, in the ancient Turkic era, the Turkic peoples were called by a single name, the Kokturks. Kokturk means divine Turk. According to the myth created by the Turkic peoples, they imagined the sky as a father and the earth as a mother. Therefore, they called themselves children of the sky, and the mythological name Kokturk became their clan name. In this article, we will focus on the name Kokturk*

Key words: *ancient Turks, Kokturk, child of heaven, heavenly Turks, toponyms, historical etymological units.*

Ko'kni qadimgi turkiylar, birinchi navbatda, osmon bilan bog'lashgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'k so'zi dastlab osmon rangini ifodalangan. Ko'k, avvalo, osmon rangi bo'lganligi uchun turkiy xalqlar uni Tangri rangi sifatida e'zozlashgan. “Kultegin” bitigida qayd etilgan ko'k so'zi shu tasavvurlarga asoslangan. Professor N.Rahmonov shunday yozadi: “Qadimgi turkiy xalqlar ko'k turklar nomi bilan tarixda qolgan. “Turk” nomi bilan mashhur bo'lgan, keyinchalik ko'plab davlatlar va xalqlarga o'z nomlarini bergan birinchi davlat G'okturk (g'ok = “ko'k” yoki “samoviy”, ammo bu kontekstda sharq ma'nosini anglatgan) davlatiga VI asrda asos solingan. Lekin ko'plab manbalarda ular samoviy turklar deb tarjima qilinadi. Qadimgi turk davrida turkiy qavmlar yagona nom bilan ko'kturklar deb yuritiladigan bo'ldi. Ko'kturk – ilohiy turk deganidir”

Ko'kturk nomi va uning ma'nosi bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlarda A.Kononovning o'rni ham katta ahamiyatga ega. Xususan, u ko'k – g'ok so'zlarining quyidagicha ma'nolarini keltirib o'tadi: 1) “ko'k”, “och ko'k”, “azure”, “och yashil”, “kulrang”, “osmon rangi”, “yosh ko'katlar rangi”, “kulrang”; 2) “osmon”, “yosh”, “o't”, “ko'kat”, “o'tloq”. Sinonimlari sifatida yashil, havorang so'zlarini, onomastik jihatdan Ko'ktosh, Ko'kbo'ri birliklarini, etnonim jihatdan ko'kturkka borib taqalishini, geografik jihatdan Ko'ksuv, Ko'kchatov kabi gidronim va oronimlarni keltirib o'tadi. Bundan tashqari, o'simliklar, qushlar, hayvonlar nomi sifatida ham kelishini ta'kidlab o'tgan.

Yana ko'kning Oltin O'rda, Oq O'rda, Ko'k O'rda shaklida ham kelishini tahlil etib, XIV asrning oxiri XV asrning boshlarida Jo'ji ulusining chap qanoti Ko'k O'rda, o'ng qanoti esa Oq O'rda deb nomlanishiga e'tibor qaratadi. Bunda geografik joylashuviga qarab, mo'g'ullar g'arbni – oq, sharqni esa “ko'k” deb ataganiga bog'liq, degan fikrlar kelib chiqadi. Ba'zi qadimiy manbalarda ham “ko'k” leksemasi “sharq – sharqiy” degan ma'nolarni ifodalaydi. O'tuken o'lkasining sharqida yashovchi turkiylar ham Ko'k turklar deb atalgan. Qadimgi turkiy moniylik qarashlarida ham Ko'kmen-dag', ya'ni Ko'kmentog' toponimi mavjud bo'lib, bunga esa quyosh aynan sharqdan, shu tog' ortidan ko'tarilganligini sabab, deb ko'rsatilgan. Chingizxon ham qadimgi turklar an'anasiga ko'ra, chap qanotini Ko'kmo'g'ul deb ataganligi keltiriladi.

Turk tilshunosligida ko'k so'zi bilan bog'liq misollar ko'p bo'lib, ularning turkiy madaniyatdagi o'rni va ahamiyatidan yuqori ekanligidan dalolat berishi mumkin. Ba'zi adabiyotlarda “turkuaz” leksemasining tag zamirida ko'k ma'nosi borligining ilmiy asoslari keltiriladi. Turkuaz turk rangi sifatida ham tanilgan, turkcha so'zning fransuzcha talaffuzidan olingan. Buning sababi mamlakatda O'rta Yer dengizi sohillarida bir firuza rang bor, deb hisoblanishidir. Turkuazning boshqa ma'nodoshlari ko'k va moviy bo'lib, bundan tashqari, firuza rangi (firuze) uning sinonimi sifatida keltiriladi. Shu bilan birga, turkuaz ham Karib suvlari ma'nosida Britaniya floti vakillari tomonidan ishlatiladi. Turkuaz rangi ko'k va yashil aralashmasidan iborat. Yoqut tilidagi “ko'k” ma'nosidagi ku'ox shakli ham turkuaz so'zida “ko'k” (yashil) ma'nolari mavjudligini asoslashga xizmat qiladi.

Ko'k tangri ramziy jihatdan turkiy qavmlarning eng qadimiy diniy timsolidir. Ularning fikricha, ko'k yuzi Tangri bo'lib, u falakning, yerning hukmdoridir. Quyosh, oy va yulduzlar Tangrining atrofidagi ko'kning yuziga joylashgan muqaddas tushunchalardir. Ko'k Tangri zamanga hayot, odamlarga jon beradi, istasa qaytarib oladi, hatto turk xoqonlari ham Ko'k

Tangrining xohishi bilan taxtga o'tiradilar, degan qarashlar mavjud. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida "Tangri-tek-Tangri" birikmasi uchraydi, uning ma'nosi ham Tangrining tanholigini e'tirof etishdir. Tangri – tek-Tangri – osmondek Tangri yoki Ollohdek Olloh, Ollohga o'xshaydigan Olloh deyilishida Tangrining qiyofasi uchun hech bir sifat, o'xshatish yo'q, u faqat Tangrining o'ziga o'xshaydi, degan qarash ifodalangan. Ko'kning Tangri sifatida qabul qilinishi, ko'k qobig'idagi osmoniy jismlarning ham muqaddasligini belgilaydi. Shu sababli ham turkiylar osmon jismlarida ilohiylikni sezadilar.

Ko'k Tangri ilohiy nomining yuzaga kelishi quyidagicha: ko'k rang → (ko'k) osmon → Ko'k Tangri. Ko'rinadiki, Ko'k Tangri nomida ko'k rang prototip vazifasini o'tagan. Ko'k Tangri osmon ma'nosidagi ko'k so'zining "balandlik", "yuksaklik", "hukmronlik" semalari asosida yuzaga kelgan.

Ko'k Tangri dini moniylikdan mutloq farq qiladi. Moniylikning osmon jismlariga sig'inishi, ularni Xudo darajasida anglashi yangilik bo'lmay, bunday qarashlar qadimgi davrdagi Kichik Osiyo xalqlari, jumladan, shumerlar hayotida, xususan, adabiyotida o'z ifodasini topgan. Hatto turkiylarning massaget qavmi ham quyoshni yagona Xudo deb tan olishi ta'kidlanadi. Ko'k Tangri dini esa butun osmon yuzini Xudo deb tushunadi. Tangrining osmonda ekanligiga ishonch bildiradi. Osmon Tangri hisoblangani uchun shu osmonda joylashgan Quyosh, Oy va Yulduzlar muqaddas sanaladi.

Turkiy qavmlarning Ko'k Tangri diniga e'tiqodi "O'g'uznoma" dostonida yorqin ifodasini topgan: "Kunlardan bir kun O'g'uz xoqon bir yerda Tangriga yolvorar edi. Qorong'u tushdi. Ko'kdan bir ko'k nur tushdi. Quyoshdan yorug', oydan yorqinroq edi. O'g'uz xoqon u tomonga yurdi, ko'rdiki, o'sha yerning orasida bir qiz bor edi. Yolg'iz o'tirar edi. Yaxshi, chiroyli bir qiz edi. Uning boshida otashga o'xshash yorug' bir xoli bor edi, xuddi oltin qoziq yulduziga o'xshar edi. U qiz shunday chiroyli ediki, kulsa, ko'm-ko'k osmon kuladi, yig'lasa ko'm-ko'k osmon yig'laydi". Ko'k tangriga e'tiqod qo'ygan xalq ongida ko'kdan tushgan nur ham ko'k rangda (aniqrog'i, ko'kning rangida) qabul qilinadi. Bu esa aql, ong yordamida idrok etish ba'zan hissiy bilishni belgilashini ko'rsatadi. Aslida, ranglarni idrok etishning dastlabki bosqichi hissiy bilish, ya'ni ko'rish bilan bog'liq. Inson ko'rish sezgisi orqali narsa-buyumlar rangini ong orqali idrok etadi. Aqliy bilish jarayoni orqali rang ramzlari shakllanadi. Rang ramzlari hissiy bilishga ta'sir ko'rsatib, inson real ongni o'zi xohlagandek ko'ra boshlaydi. Shuning uchun ham tadqiqotlarda rang ramzlarida narsa-buyum, madaniy belgilar, so'z bilan bir qatorda, shaxs munosabati, yondashuvini aks ettiruvchi lisoniy ong ham muhim o'rin tutishi ta'kidlangan. Bu holatni kimsasiz sahroda yo'lovchiga daraxtlar, quduqlar, suvlarning ko'rinishi, sarobni reallik sifatida qabul qilish jarayoniga qiyoslash mumkin.

Bu parchada ramziy tarafdin Ko'k Tangrining obrazi turkiy qavmlar tasavvuri darajasida chizilgan. O'g'uz xoqon Tangriga yolvorganda ko'kdan tushgan nur Tangrining mehri edi. Bu nur oldida Quyosh va Oy nuri o'zidir. Demak, turkiylar uchun ko'k mavjud ekan, Quyosh va Oy Tangri bo'la olmaydi. Badiiy adabiyotda Tangrini yor, ma'shuqa timsolida tasavvur etish an'analari mavjud. O'g'uz xoqonga nur orasida ko'ringan chiroyli qiz – bu Tangri edi. U shu qadar qudratli kuchki, kulsa osmonni (o'z makonini) kuldirdi, yig'lasa yig'latadi.

Dostonda O'g'uz xoqon o'ziga hamroh tutingan nurdan uch farzand ko'radi. Ularga Kun, Oy, Yulduz ismlari beriladi. Demak, bunday nomlanishda ham osmon jismlari Tangri emas, aksincha ular Osmon – Tangrining mehridan yuzaga kelgan muqaddas farzandlardir.

O'g'uz xoqon yana bir qizga uylanib, undan ham uch farzand ko'rdi va Ko'k, Tog', Dengiz deya ism qo'ydi. Bu ismlarda ham ramziylik mavjud bo'lib, uch qavatli olam ramzi namoyon bo'ladi. Ko'k – yuqori olamni, Tog' – o'rta olamni, Dengiz – quyi olamni ifodalaydi. "O'g'uznoma"dagi uch qavatli olamning ibtidosi daraxt ramzi bilan ifodalangan. Jahon mifologiyasida "olam daraxti" yoki uning bir varianti bo'lgan "hayot daraxti" hosildorlik daraxti, markaz daraxti, samoviy daraxt, bilish daraxti nomlari bilan yuritiladi. "O'g'uznoma"dagi daraxt ramzi, xususan, avlodlarning vorisiylik aloqalari, yoki umuman olganda urug'larning nasabnomasini ifoda etadi. Daraxt ramzidan kelib chiqqan qizdan tug'ilgan farzandlar – Ko'k, Tog', Dengiz ismlari va ular anglatgan uch qavatli olam ramzi

nasabnomaning davomiyligi bilan birga, hayot daraxtining gorizontal va vertikal tuzilishini anglatadi.

O'g'uz xonning har ikkala xotinidan tug'ilgan o'g'illar ismi shunday tuzilish borligini ko'rsatadi. Aslida daraxt kultida uch qavatli olamning asosiy hududlari – yuqori (samoviy shohlik yoki Ko'k), o'rta (yer yoki Tog'), quyi (yer osti shohligi yoki Dengiz) aks etgan deb, qarash maqsadga muvofiqdir. Qadimgi turkiy kosmogonik mifologiyasining mazkur ko'rinishi qadimgi turkiylarda fazoviy olamni xaos, ya'ni bo'shliq olamidan ajratadi.

Ko'k ramziy jihatdan qadimgi turklar tasavvurida ilohiy degan ma'noda qo'llanadi. Ko'k rangining "ilohiy" ma'nosi ildizlari qadimgi turklarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. "O'g'uznoma"dagi muhim obrazlardan biri ko'k yollik erkak bo'ri obrazidir. Ko'k bo'ri timsoli – qadimgi turkiy yodgorliklardagi ma'nosini va vazifasini saqlagan. Mazkur bo'ri ham Tangri (osmon)dan tushgan. Shuning uchun bo'ri rangi osmon rangi bilan bir xilda. Aslida bo'ri timsoli bu o'rinda ahamiyatlidir. Qadimgi xitoy yilnomalarida turkiy qavmlarning bo'ridan kelib chiqqani haqidagi afsona bor. "O'g'uznoma"dagi bo'ri obrazi Kul tigin bitigtoshidagi bo'ri timsolining aynan o'zi – bir ma'noda va bir vazifada kelgan.

Turkiy xalqlar folklorida bo'ri obrazi an'anaviy ravishda qadimgi turk davridagi bo'rini davom ettirgan. Jumladan, boshqird xalq eposlarida ham bo'ri obrazi qadimgi turk afsonalaridagi xususiyatlarini davom ettiradi. Jumladan, qadimgi xitoy yilnomalarida qayd etilishicha, qadimgi turk va mo'g'ul xalqlari bayrog'ida bo'ri kallasi tasviri tushirilgan. Ona bo'ridan tug'ilgan Ashin urug'i katta iqtidor egasi bo'lib, davlatni boshqarganlar. Ular qayerga borib o'rnatishalar, o'sha joyda bo'ri tasviri tushirilgan bayroqni o'rnatganlar va bu bilan o'zlarining kelib chiqishlariga ishora qilganlar. Mo'g'ullar ham o'zlarining ajdodlarini hurmatlab, bayroqlarida bo'ri oltin kallasini tasvirlaganlar. Mo'g'ul afsonalariga ko'ra, ramziy va diniy jihatdan Chingizxon ko'k bo'ridan kelib chiqqan.

Q.Sodiqov: "Qadimgi turkiy bitiklarda Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davrida (VI-VIII yuz yilliklarda) yashagan turkiy xalqlar o'sha chog'lardan qolgan bitiklarda "ko'k turklar" (kök turklar) deb atalgan. Bu atamadagi "kök" sifati hozir biz bilganday "rang" ma'nosida emas, u "ildiz, asl, tub" anglamidadir.

So'zning bu ma'nosini Mahmud Koshg'ariy ham keltirib o'tgan. Unga ko'ra, kök – "asl, tomir, tag". Shunga ko'ra, "kökun kim?" deb so'raladi, "asling kim, qaysi qabiladansan?" demakdir (o'g'uzlar va qipchoqlar so'zi) (DLT, 296)".

Ko'kbuloq, Ko'ksuv, Ko'kdaryo gidronimlari haqida shuni aytish mumkinki, bu xil gidroobyektlarning ko'lami chuqur, suvning oqish sur'ati sokin, rangi shishadek ko'm-ko'k, g'oyat tiniq va toza bo'ladi. Shuning uchun bu gidronimlar tarkibida aynan shu ma'noda keladi. Gidroobyektlarning nomlanishida qizil, sariq, yashil kabi so'zlardan ham foydalanilgan.

Topoleksemalar tarkibida ko'k so'zi ko'p takrorlanadi: Ko'kbeles, Ko'kiak, Ko'kterak, Ko'ksaroy, Ko'ktepa, Ko'kjar, Ko'kchatov. Ko'kmo'yin – O'rta Chirchiq tumanida yashovchi Qipchoq o'zbeklarining bir urugi bo'lib, qirg'izlarning bag'ish qabilasining bir urugi ham Ko'kmuyun deb atalgan.

Ko'ksaroy – Toshkent tumanidagi joy toponimi sanaladi. Saroy qabilasining bir tarmogi – Ko'ksaroy. Ko'ksaroy toponimi aslida qanday tarixiy etimologik ma'lumotlarga tayanadi. Amir Temur Samarqandni o'z saltanatining poytaxti etib e'lon qilgach, shaharda keng ko'lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Xususan, 1371-1372 yillarda shaharning g'arbiy qismida 34 gektar maydonni o'z ichiga olgan Arki oliya bunyod etiladi. Temuriylar davriga oid yozma manbalarda Arki oliya ikki qator mudofaa devori bilan o'rab olinganligi, bu yerda Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy saroylari qad ko'targanligi hamda davlat ahamiyatiga ega inshootlar – g'azna, qurol yarog', harbiy aslahalar ishlab chiqaruvchi ustaxonalar, omborxonalar, kutubxona, devonlar joylashganligi qayd etiladi.

Bo'stonsaroy arkning shimoliy qismidagi mudofaa devori yonida joylashib, asosan hukmdorning o'zi va oilasining istiqomat qilishi uchun mo'ljallangan. Ko'ksaroy esa ark markazida joylashib, to'rt qavat bo'lgan. O'z davrida yuksak darajada mahorat bilan bezalgan saroyda elchilarni qabul qilish, rasmiy marosimlar o'tkazish kabi davlat boshqaruvi bilan bog'liq

ishlar amalga oshirilgan. Ko'ksaroy qarorgohida amirning maxsus o'rindig'i bo'lib, u ham ko'ktosh deb atalgan. Bu hozirgi paytda ham Samarqandda Go'ri Amir maqbarasida saqlanadi. Ko'ktosh deb atalishiga sabab, unda ko'k rangining ozgina belgisi mavjud, ya'ni asosan, kulrangga yaqin. Bu tosh kechasi o'zidan nur taratadi, degan ma'lumotlar ham mavjud.

Qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari eng katta ma'naviy boyligimizdir. Demak, xalq og'zaki ijodida muayyan davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan. Ularda ifodalangan ramzlarni tadqiq etish va ularni to'g'ri talqin qilish ajdodlarimizning ichki dunyosini yoritib berishga, bizni ularga yaqinlashtirishga, ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi. Zero, "ramzlar – qadriyatlar majmui"dir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmanov N. O'rxun–Yenisey yozuvi yodgorliklari. – Toshkent: Sharq, 2012. – 17 b.
2. Kononov A.N. Semantika svetooboznacheniye v tyurkskix yazikax / A.N.Kononov // Tyurkologicheskiy sbornik – 1975. – M.: Nauka, 1978. – S.169-172.
3. Sultanov T.I. O terminax Ak-Orda, Kok-Orda i Iuz-Orda. – IAN KazSSR. Seriya obshchestvennaya. – 1972, – №3. – S. 72.
4. Gabain. Vom Sinn, c. 1.15. Cp. takje: «...les Mongols oriyentaux portaiyent le nom de Mongols Bleus (bleu azure ou vert cla ir= Est) au temps det Gengis khan» (Saussur, c.34).
5. Gabain, A. 1950. Alttürkische Grammatik mit Bibliographiye, Lesestücken und Wörterverzeichnis, auch Neutürkisch, Leipzig, Veb Verlag Enzyklopadiye.
6. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari. Birinchi qism. – Toshkent, 2000. – 25 b.
7. Sodiqov Q. Eski o'zbek yozma adabiy tili. – Toshkent, 2020. – 243 b.

TARIHSEL VE ÇAĞDAŞ TÜRK LEHÇELERİNDEKİ BAZI SÖZCÜKLERİN FONETİK AÇIDAN İNCELENMESİ

PHONETIC EXAMINATION OF SOME WORDS IN HISTORICAL AND CONTEMPORARY TURKISH DIALECTS

Khabibullayev Muzaffar *

Özet. Bu çalışmada, Eski Türkçedeki sözcüklerin tarihi gelişimi ses ve yapı bakımından incelenecektir. Bu sözcüklerin seçiminde Sir Gerard Clauson'un *An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish* adlı eseri esas alınmıştır. Öncelikle Eski ve Orta Türkçeden bu yana kullanılan alfabeler hakkında genel bilgi verilmiştir. Ardından söz içi ve söz sonu Proto-Türkçedeki /**d/*, /*r*' veya *z*'/, /*l*' veya *ş*'/ söz başı /*y*/ seslerinin Eski ve Orta Türkçe alfabelerindeki yazımı, tarihsel ve modern Türkçedeki durumu incelenmiştir. Ayrıca tek heceli sözcüklerin sonundaki -*Ag* ses grubu ve birden çok heceli sözcüklerin sonundaki -*Ig* ses grubunun da tarihsel ve modern Türkçedeki durumu ele alınmıştır.

Anahtar Kelimeler: Eski Türkçe, Orta Türkçe, Çağdaş Türk lehçeleri, Proto-Türkçe, Proto-Ogurca

Abstract. In this study, the historical development of words in Old Turkish is examined in terms of sound and structure. The selection of these words is based on Sir Gerard Clauson's work titled "An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish." First, general information about the alphabets used in Old and Middle Turkish is provided. Then, the writing of

* Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Çağdaş Türk Lehçeleri ve Edebiyatları Bölümü doktora öğrencisi, e-mail: muzaffar19_96@mail.ru